

## GENDERTENGLIKNIYARATILISHININGHUQUQIYASOSLARI

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti Yuridika Fakulteti Yurisprudensiya Faoliyat Turlari Yo'nalishi Talabasi*

**Saliyeva Muxlisa Mansur Qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gendertenglikning tarixiy rivojlanish va ularni huquqiy asoslari, gendertenglikdagi muammolar, xalqaro miqyosda olib borilayotgan faoliyat, chet el davlatlarida gendertenglikning shakllanish va milliy qonunchiligimizdagi huquqni qo'llash hamaliyotidaxotin- qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidaxotin qizlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar bilan bog'liq masalalar yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** Gender tenglik, CEDAW, diskriminatsiya, Gender komponent, huquqiy ta'lim, konvensiya, Ayollar nizomi, Ayollar kuni, BMT

Gender tengligi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gender tengligi ayol va erkaklarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohadagi tengligini anglatadigan jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda eng aktual muomolardan bo'layotganligining sababi esa ayollar va erkaklar tenglik masalasida hayotimizning barcha jabhalarida bu tenglik huquqini tatbiq etish mohiyati yotadi. Bu masalaga butun dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Oddiy holatda tushintirilganda gender bu ayollar va erkaklar tengligi. Tenglik bo'lishi uchun esa tarozini ikki pallasiga teng bo'lishi kerak. Ammo hozirgi davrda ayollar huquqi, ularning erkinliklari, jamiyatdagi o'rnida va ularga nisbatan tazyiqlar, zo'ravonliklar holati juda ko'p kuzatilmoqda.

Bu holat 19 asr oxiri 20 asr boshlarda ayollarning gender tenglik bo'yicha harakatlari kuchaya boshlashiga sabab bo'ldi. Ushbu jarayon esa dunyoning hamma yerida bir xil tarzda kechmaydi masalan, G'arbda ayollarning mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yuz bersa, Sharqda ayollar paranjisining yechilishi bilan boshlanganligini ko'rsatishimiz mumkin.

19 asrning ikkinchi yarmida birinchi marta turli ayollar tashkilotlari tuziladi 1888-yili boshlarida "Xalqaro ayollar tashkiloti" tuziladi. Vashingtonda 9 mamlakatdan 53 ta ayollar tashkiloti vakillari yig'ilib, ayollarning inson huquqlarini himoya qildilar. Birinchi jahon urushidan keyin birinchi universal tashkilot Millatlar Ligasi sifatida tashkil etildi. Ayollar tashkilotlari Parijdagi Tinchlik konferentsiyasida Millatlar Ligasi Qo'mitasining 12-yig'ilishida qatnashdilar, ammo ularning ishtiroki qo'mita ayollar uchun bevosita tegishli deb hisoblagan masalalar bilan cheklandi. Biroq, ular "Ayollar Nizomi"ni taqdim etdilar, unda ayollarning fuqaroligini turmush o'rtog'idan ajratish, ayollar va qizlarning odam savdosini taqiqlash, mehnat sohasida erkaklar va ayollar tengligiga erishish muhimligi ta'kidlangan.[1]

Bu jarayonlar ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi tuzilgan BMT faoliyatida ham davom ettiriladi. 1948 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Inson

huquqlari umumjahon deklaratsiyasini gender- neytral nuqtai nazardan e'lon qildi, unda erkaklar va ayollarning teng huquqliligi va jinsga qarab kamsitishning taqiqlanishi ta'kidlandi. Deklaratsiya Eleonor Ruzvelt raisligidagi BMTning Inson huquqlari komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.[2]

Bu nazariy jihatdan yaxshi boshlanish edi va undan keyin 1966 yildagi ikkita Xalqaro pakt, inson huquqlari bo'yicha umumiy shartnomalar, jinsga ko'ra kamsitishni taqiqlovchi va ishtirokchi davlatlarni erkaklar va ayollarning teng huquqlarini ta'minlash majburiyatini yuklagan. Ammo amalda BMTga a'zo davlatlar 1979 yilda "ayollarga nisbatan keng qamrovli diskriminatsiya saqlanib qolayotganini tan olishlari kerak edi, shuning uchun ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi genderga xos konvensiya (CEDAW) qabul qilindi.

Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, mamlakatlardan barcha sohalarda ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etishni talab qiladi va ayollar va qizlarning teng huquqlarini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ayollar va erkaklar teng huquqliligiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. O'zbekiston Xotin-qizlar kamsitilishining barcha turlariga barham berish bo'yicha Xalqaro Konvensiyaga a'zo va bu masalada milliy konsepsiyani ham qabul qilgan.

Gender tenglik masalalari bo'yicha juda ko'plab qonunlar qabul qilgan va hozirgi kunda samarali loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu borada davlatimiz nafaqat tenglik masalasida balki ayollar huquqi va erkinliklarini yanada himoya qilish ularning ijtimoiy holatini yaxshilash, jamiyatdagi rolini kuchaytirish ularning davlat organlar tizimida mehnat faoliyatini ko'tarishga harakat qilmoqda. Ayollar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy ahvolini yaxshilash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, 2021 yil 9 dekabrda O'RQ-736-son "Og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni, Prezidentning 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2022 yil 7 martdagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon, 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar qabul qilingan.

Mamlakatimizda jamiyatda ayollarning ijtimoiy maqomini kuchaytirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlashning yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi

konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Xotin-qizlarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishdagi o'рни va rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerakligi belgilangan.[3] Hozirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a'zolari va mahalliy Kengash deputatlarining 25 foizi xotin-qizlardan iborat. Bu 2014 yildagi parlament saylovidagi ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p deganidir. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qirq foizga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda. Yevropa davlatlarida 40-50 foiz, MDH davlatlarida 25-30 foiz atrofida belgilangan. Rossiya, Belarus va Tojikistonda esa ayollar uchun kvotalar nazarda tutilmagan. Armanistonda 25 foiz, Qozog'istonda ayollar bilan birgalikda yoshlar va nogironlar 30 foiz, Qirg'izistonda esa nomzodlarning ko'pi bilan 70 foizi bir jins vakili bo'lishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Parlamentlararo ittifoqning 2023 yil 1 yanvardagi ma'lumotlarida siyosatdagi ayollar reytingi bo'yicha 190 mamlakat ichida O'zbekiston 52- o'rinda qayd etilgan. Shuningdek, 16 nafar ayol Ichki ishlar vazirligi tizimida rahbarlik, 6 nafari hokimlik, bir nafari elchilik lavozimini egalladi. Bundan tashqari, 1500 nafarga yaqin xotin-qizlar turli darajadagi rahbarlik vazifalarida faoliyat yuritmoqda. 2019 yil dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra, ayol deputatlar soni Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining 32 foizini, ayol senatorlar esa Senat a'zolarining 25 foizini, mahalliy Kengashlarda esa xotin-qizlar ulushi 25,6 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston parlamenti jahondagi 190 ta parlament orasida 44-o'rinni egalladi.[4]

Mamlakatimizda Gender tengligi jarayonlarini mustahkamlash jamiyatda va davlat boshqaruvida ayollar salmog'ini ko'tarishimiz lozim. Xotin qizlar huquqini himoya qilish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish uchun turli o'quv metodlarini ishlab chiqqan holda ularning jamiyatdagi va oiladagi rolini kuchayitishda, Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarida, mahallalarda har bir korxonada, muassasa, tashkilotlarda, o'quv yurtlarida "Ayollar kuni" ni tashkil qilib shu kunda ularga har tomonlama huquqiy va psixologik treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Yevropa olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Gender komponent huquqiy ta'lim" kabi huquqiy metodologik kitoblardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (i) rezolyutsiyasi <https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/udhr.pdf>
2. Xalqaro Ayollar Kengashi, Tarix, quyidagi manzilda mavjud: <http://www.icw-cif.com/01/03.php>. 2021-yil 10-aprelda kirilgan. 5 Bu masalalar ayollarning mehnat huquqlari, fohishalik, qamoqxona islohoti, yosh nikoh va ayollar va bolalar savdosi,

Ittifoqlararo ayollar konferentsiyasi Pariga javob sifatida Tinchlik konferentsiyasi, EuroClic, 2019 yil 4 dekabr, quyidagi manzilda mavjud: <https://www.eurocio.eu/2019/12/04/Ittifoqdosh-ayollar-konferentsiyasi-parij-tinchlik-konferentsiyasiga-javob-sifatida-9-iyulda-foydalanilgan2021>, Shuningdek qarang: Ayollar va global diplomatiya: Tinchlik harakatlaridan BMTgacha BMT tadqiqot qo'llanmalari: <https://libraryresources.unog.ch/womendiplomacy/leagueofnations>, 2021-yil 9-iyulda kirilgan

3. [https://uza.uz/oz/posts/deputatlikka-nomzodlar-korsatilayotganda-ayollar-soni-30-foizdan-40-foizga-oshiriladi\\_533730](https://uza.uz/oz/posts/deputatlikka-nomzodlar-korsatilayotganda-ayollar-soni-30-foizdan-40-foizga-oshiriladi_533730)

4. <https://uza.uz/oz/posts/gender-tenglik-qanday-taminlanmoqda-834745>

5. The Evolving Recognition of Gender in International and European Law .Rigmor Argren, Marco Evola, Thomas Giegerich, and Ivana Krstić

6. Gender-Competent Legal Education

7. oak.uz

8. stat.uz

9. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.

10. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.

11. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.

12. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.

13. Мамаджонов, Р. (2023). "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O 'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).

14. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

15. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg 'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg 'ona davlat universiteti o'qituvchisi OA Tursunov–Farg 'ona politexnika instituti akademik litsey o'quvchisi. FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.